



**DAVLAT TEST MARKAZI**  
*Bilimingga ishon va muvaffaqiyatga erish!*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
DAVLAT TEST MARKAZI

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI, AKADEMIK LITSEYLAR  
VA KASB-HUNAR KOLLEJLARI O'QUVCHILARINING  
UMUMTA'LIM FANLARI BO'YICHA  
OLIMPIADASINING IV (RESPUBLIKA) BOSQICHI  
ISHTIROKCHILARI UCHUN**

**ONA TILI VA ADABIYOT  
FANIDAN  
TEST TOPSHIRIQLARI KITOBI**

---

*Ishtirokchining familiyasi, ismi va otasining ismi*

---

*Imzo*

3–variant

Ushbu test varianti 30 ta (1–30) topshiriqdan iborat.

Test topshirig'i uchun ajratilgan ball har bir test topshirig'ida aks ettirilgan.

Kitobda yopiq va ochiq turdag'i test topshiriqlari mavjud:

- yopiq turdag'i test topshiriqlarida bitta javobni (A, B, C yoki D) tanlang va javoblar varaqasidagi topshiriq raqamiga mos qatorga yozing;
- ochiq turdag'i test topshiriqlarining javobini javoblar varaqasidagi topshiriq raqamiga mos qatorga aniq va tushunarli tarzda yozing;
- moslashtirishni talab qiluvchi yopiq test topshiriqlari uchun umumiylit (A–F) javob varianti berilgan, uchta topshiriqqa (28-, 29-, 30-test topshiriqlariga) ushbu javoblar orasidan mos ravishda bittadan javob tanlang va javoblar varaqasiga belgilang.

1.

[2,4 ball]

Imloyiy jihatdan to‘g‘ri yozilgan so‘zlar qatorini aniqlang.

- A) nadomad, me’moriy, mas’uliyat  
 B) muddao, mutloqo, vakolat  
 C) murojaat, nafosat, mas’um  
 D) saranjom, qanoat, mutolaa

2.

[2,4 ball]

Qaysi gaplarda **tire tinish belgisi** o‘zaro bir xil punktuatsion qoida asosida qo‘yilgan?

1. *Dengizi bor – suvi yo‘q, yo‘llari bor – izi yo‘q.*
  2. *Sekin pichirladi: “Ha, tushundim: aqli uzoqni ko‘zlar, aqsliz – yaqinni”.*
  3. *Tuproq ko‘chalarni, paxsa devorli uylarni, yangi uzilgan non isini – hammasini sog‘indim, ona.*
  4. *Insonning eng yaxshi tarbiyachisi – kitob, eng qattiqko‘l tarbiyachisi – hayot.*
  5. *Bularning hammasi: til, din, madaniyat – millatning yashayotganligidan dalolat.*
  6. *Ijodkor inson qalbidagi eng go‘zal tuyg‘uni – o‘zidan o‘zgani samimiyat bilan sevish tuyg‘usini – tasvirlay olgan.*
- A) 3 va 6    B) 1 va 4    C) 2 va 5    D) 4 va 5

3.

[2,4 ball]

Nutqda o‘zaro sinonimlik hosil qila oluvchi so‘zlar to‘g‘ri **moslashtirilgan javobni belgilang**.

- |          |         |
|----------|---------|
| <b>a</b> | to‘g‘ri |
| <b>b</b> | xasis   |
| <b>c</b> | baland  |
| <b>d</b> | tik     |
| <b>e</b> | og‘ir   |
| <b>f</b> | adil    |
- |          |        |
|----------|--------|
| <b>1</b> | qattiq |
| <b>2</b> | rost   |

- A) 1-b, c, e; 2-a, d, f    B) 1-b, d, e; 2-a, c, f  
 C) 1-b, c, f; 2-a, d, e    D) 1- a, c, e; 2-b, d, f

4.


[2,4 ball]

Qaysi gapdagi nuqtalar o‘rniga so‘z yasovchi, lug‘aviy shakl yasovchi va sintaktik shakl yasovchi qo‘sishimchalar mos keladi?

- A) Sizni eshit..k, aqlimizga aql qo‘shiladi, ona..., so‘z..yvering.  
 B) Ko‘p o‘qi.. odam ko‘p biladi, sen buni aslo yod..dan chiqar.. .  
 C) Boy..ing ko‘p bo‘l..sa ham, bil..ing ko‘p bo‘lsin.  
 D) Yalqov.. muhtojliklar.. boshlanishi.. .

## 5. [2,4 ball]

Berilgan gaplar va ularda ishtirok etgan fe'l shakllari to'g'ri moslashtirilgan javobni aniqlang.



A) 1 – b, d, e; 2 – a, c, f

B) 1 – b, c, f; 2 – a, d, e

C) 1 – a, c, e; 2 – b, d, f

D) 1 – b, c, e; 2 – a, d, f

## 6.

[2,4 ball]

Quyidagi gap haqida berilgan to'g'ri hukmni toping.

*Bizning eng beba yo'nalishimiz  
ota-bobolarimiz aql-zakovatining mahsuli  
bo'lgan, ularning dahosi mujassamlashgan  
noyob asarlardir, bunday merosga ega xalqlar  
esa dunyoda ko'p emas.*

A) Ega, aniqlovchi va holning kesimiga to'g'ridan  
to'g'ri tobelanishi kuzatilgan.

B) To'ldiruvchining ikki xil ma'no turi ishtirok  
etgan.

C) Ot kesim ham, fe'l kesim ham ishtirok etgan.

D) Egalar ikki xil so'z turkumi bilan  
ifodalangan.

## 7.

[1,7 ball]

Shukur Xolmirzayevning "Ot egasi" hikoyasi qahramoni Inod obrazi haqidagi **XATO** hukmni aniqlang.

A) Leytenant Egamberdi Xudoyberdiyevning  
ko'nglini olish uchun unga pora taklif qiladi.

B) Oliy ma'lumotli bo'lmasa-da, qishloq  
bolarining sevimli ustozini edi.

C) Bosmachilarga qarshi jangda halok bo'lgan  
otasining xotirasiga hurmat bilan qarardi.

D) Partiya komitetining yangi sovxoz tashkil  
etish to'g'risidagi qaroriga keskin norozilik  
bildiradi.

8.

[1,7 ball]

Sharof Boshbekovning “Temir xotin” tragediyasidan olingan ushbu parchadagi **lokator** tushunchasi qanday badiiy maqsadni ifodalash uchun xizmat qilgan?

“... men elektromagnit to‘lqinlari tarqatyapman... qirq yildan beri. Sen elektromagnit to‘lqinlari tarqatyapasan ... tug‘ilganingdan beri. Eshmat tarqatyapti, Abdurayim, Mamarayim tarqatyapti – qabul qiladigan apparat yo‘q! Shuning uchun, Qumri, har bir idoranining tepasida **lokator** bo‘lishi kerak. Bitta bayroq, bitta lokator! Bitta bayroq, bitta lokator. Hozir-chi... Faqat bitta bayroqning o‘zi turibti...”

- A) hukumatning xalq dardini tinglamayotganligini ifodalash uchun
- B) hukumatga qattiqqa‘l boshqaruvchi lozimligini ta‘kidlash uchun
- C) bu davrda ilm-fan yaxshi rivojlanmaganligini ko‘rsatish uchun
- D) hukumatning iqtisodiy qashshoqligini ko‘rsatish uchun

9.

[1,7 ball]

Quyidagi she’rdagi o‘rik daraxti timsoli haqidagi **XATO** hukmlarni aniqlang.

“Bir tup o‘rik  
Yakka o‘sgan ekan:  
Yolg‘iz tomoqmasmi – rosa unibdi.  
Bodroq-bodroq bo‘lib gullaganida  
Ko‘lankasi bilan do‘st tutinibdi...”

- 1) bag‘ritosh odam qiyofasi yaratilgan;
- 2) manman kimsalar timsoli hisoblanadi;
- 3) soddadil inson obrazi yaratilgan;
- 4) ishonuvchan kishilarning timsoli gavdalangan.

- A) 1, 2    B) 1, 2, 3    C) 2, 3, 4    D) 1, 4

10.

[1,7 ball]

Alfons Dode qalamiga mansub “So‘nggi saboq” hikoyasi qahramoni mosye Amel: “Men seni koyimayman, Frans, o‘g‘lim, shundoq ham jazolanganligingni bilsang kerak”, – deganida qanday jazoga ishora qilganligini **aniqlang**.

- A) nemislar istilosiga sababli boshqa shaharga ko‘chib ketayotganligiga
- B) o‘qishi shahar chetidagi o‘rta maktabga ko‘chirilganligiga
- C) o‘z ona tilida saboq olish imkonidan judo bo‘lganligiga
- D) fransuz tili o‘qituvchisi Mosye Amelning nafaqaga ketayotganligiga

11.

[2,4 ball]

Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidan olingan quyidagi parchada qaysi tarixiy voqeа haqida so‘z borgan?

*Kengash majlisini o‘tkazgandan keyin mingboshi darhol o‘ziga yigit to‘plashga kirishdi. Yetti kishi o‘rniga yigirma-o‘ttiz talabgor bir qishloqning o‘zidan chiqdi. Hakimjon muni mingboshiga arz qilib turib, dedi:  
– Ishlar yaxshi, taqsir, yettita desak, o‘ttiztasi kelib o‘tiribdi.*

- A) mash‘um qatag‘on siyosati
- B) ikkinchi jahon urushi voqealari
- C) quloqlashtirish siyosati
- D) mardikorlikka safarbar qilish siyosati

12.

[1,7 ball]

“Sohibqiron” dramasida Amir Temur nutqidan olingan parchadagi qaysi **so‘z birikmasi** orqali Temurning Boyaziddan qudratli ekanligi ifoda etilgan?

### **Boyazid**

*Asir bo‘lib tursam hamki qoshingda, Temur,  
Zor emasman iltifoting, taassufingga.*

### **Temur**

*Oddiygina bir voqeа yuz berdi, axir,  
Sen Yildirim laqabli bir qudratli chaqmoq  
Cho‘ng temirga urilding-u, chilparchin bo‘lding.*

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

13.

[0,9 ball]

Quyidagi ruboilyning raviysini **aniqlang**.

*Ko'pdin berikim, yor-u diyorim yo'qdur,  
Bir lahza-yu bir nafas qarorim yo'qdur,  
Keldim bu sori o'z ixtiyorim birla,  
Lekin borurimda ixtiyorim yo'qdir.*


Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

14.

[0,9 ball]

Ajratib ko'rsatilgan har uchala so'z bilan ma'nodoshlik hosil qila oladigan so'zni **yozing**.




Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

15.

[1,7 ball]

Quyidagi shakldosh iboraning 2-ma'nosini **aniqlang**.



Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

16.

[1,7 ball]

Quyidagi gapda tushirib qoldirilgan tinish belgilarining to'g'ri ketma-ketligini **yozing**.

*Alisher Navoiy Mahbub ul-qulub asarida  
Yaxshi-yomonning fe'lini bilibmen va yamon-u  
yaxshi xislatlarin tajriba qilibmen deb yozadi*

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

17.

[0,9 ball]

Berilgan parchadagi yasama sifat narsaning **qanday belgisini ifodalab kelgan?**

*Qoramfir libos tantanalar, marosimlar uchun mos, salobatli va juda ulug'vor libos hisoblanadi. Qora libos hamisha sariq, yam-yashil, oqish liboslar bilan uyg'unlashadi. Yoshlar bu kabi liboslarni qizil bilan kiyishni ayniqsa yoqtirishadi.*

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

18.

[0,9 ball]

Gapdagi ko'p nuqta o'rniga mazmun va grammatik jihatdan mos keluvchi yordamchi so'zni **yozing**.

*Dushmanning hiylasiga aldanma va maddohning maqtovini bir pulga olma, ... biri makr tuzog'ini qo'ygan va ikkinchisi tamagirlilik qilgan bo'ladi.*

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

19.

[0,9 ball]

Gapda ajratib ko'rsatilgan so'z tobelangan hokim so'zni **aniqlang**.

*Masofaviy ta'lim – ta'lim oluvchilarining zarur bilim, malaka va ko'nikmalarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib egallashiga qaratilgan ta'lim shaklidir.*

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

20.

[0,9 ball]

Parchada ajratib ko'rsatilgan so'zning sintaktik vazifasini **aniqlang**.

*Vujuding – bir shahar, yaxshi bor, **yomon**, Vaziring aqlingdur, sen unga sulton.*

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

21.

[0,9 ball]

Berilgan parchadagi to'liqsiz gapda qaysi gap bo'lagi tushib qolgan?

*Luqmoni hakimdan: "Hikmatni kimdan o'rgangansan?" – deb so'radilar.*

*Luqmoni hakim shunday javob berdi: "Ko'rlardan o'rgandim. Ular oyoqlari ostini yaxshilab tekshirmay turib qadam bosmaydilar".*

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

Matnni o'qing va quyidagi uchta topshiriqni bajaring.

### MATEMATIKA OLAMI HAQIDA QIZIQARLI MA'LUMOTLAR

Matematik bilimlarsiz zamonaviy dunyoda nochor bo'lib qolardik. Kimyo, fizika, tibbiyot kabi fanlar ham mavjud bo'lmagdi. Matematikaning bиринчи sinfdan dars sifatida o'qitilishi bejiz emas. Matematik qobiliyati yaxshi shakllangan insonlar boshqa sohalarda ham muvaffaqiyatli bo'lishadi. [1] *Matematika fanlari professori Stiven Xoking boshqa fanlarni mustaqil va juda oson o'zlashtirgan.*

Rivojlangan sivilizatsiyalardan biri bo'lgan Rim imperiyasida nol raqami mavjudligi haqida bilishmagan, hisob-kitob ishlarini bir amallab yuritishgan, ... bu raqamsiz matematika ma'nosizdir.

"Teng" belgisi ilk marta XVI asrda, manfiy sonlar esa XIX asrda kelib qo'llangan. [2] *Ma'lumki, birdan yuzgacha bo'lgan jami sonlar yig'indisi 5050 ga teng.*

Lahza nima? [3] *Bu bor-yo'g'i ibora emas, 0,01 soniyaga teng bo'lgan vaqt o'lchov birligi ekan.*

Tayvan orolida to'rt sonidan juda qo'rqishadi, chunki u mahalliy aholi uchun yomonlikni anglatadi. Bu holat shu darajaga yetganki, ba'zi uylarda to'rtinchchi qavat va mana shunday raqamli xonodonlar yo'q.

XX asrning boshiga qadar matematika bo'yicha barcha bilimlar 80 ta katta bo'lmagan nashrlarga sig'ar edi. [4] *Bugungi kunda esa matematika asoslarini 800 ta kitobga joylashтирish imkonsiz.*

22.

[0,9 ball]

Matn mazmuniga mos to'g'ri shakllantirilgan gapni **aniqlang**.

- A) "Teng" belgisi paydo bo'lgani tufayli manfiy sonlar keng qo'llana boshladi.
- B) Tayvanliklar ilmiy farazlarga asoslanib, ayrim raqamlarni qurilish sohasida qo'llashmagan.
- C) Kimyo, fizika, tibbiyot fanlari rivojlanmaganda matematikaga ham ehtiyoj tug'ilmasdi.
- D) Hech qanday qiymatga ega bo'lmagan raqam ham hisob uchun juda ahamiyatlidir.

23.

[0,9 ball]

Matndagi ko'p nuqta o'rnida qo'llanishi lozim bo'lgan so'zni **belgilang**.

- A) alaxusus
- B) zero
- C) binobarin
- D) basharti

24.

[0,9 ball]

Matndagi qaysi raqam bilan ajratib ko'rsatilgan gap o'zidan oldin berilgan fikrga dalil sifatida keltirilgan?

- A) 2
- B) 4
- C) 1
- D) 3

Baytlarni o'qing va quyidagi uchta topshiriqni **bajaring**.

- (1) *Ulki zarar shevasini<sup>1</sup> tavr<sup>2</sup> etar,*  
*Elga demakim, o'ziga javr etar.*
- (2) *Shu'la tushib xasg'aki, tortar alam,*  
*Chun oni kuydirdi, o'char o'zi ham.*
- (3) *Kimki falak sori otar toshini,*  
*Tosh ila ozurda etar boshini.*

LUG'AT: *shevasini<sup>1</sup>* – odat, rasm, taomil; *tavr<sup>2</sup>* – odat, yo'sin.

25.

[2,4 ball]

Yuqorida keltirilgan baytlar mazmuni to'g'ri izohlangan javobni **belgilang**.

- A) **1-bayt** – "O'ziga zarar yetkazmaslik uchun intiladigan kishi, albatta, o'zgalarga ziyon yetkazadi".
- B) **1-bayt** – "Qilmishi elga emas, o'ziga jabr yetkazadigan kishi zararkunandalik va ziyonkorlikni odat qilgan kishidir".
- C) **2-bayt** – "Shu'la xasga tushganligi sababli kuyib ketadi va xasga emas, o'ziga ziyon qilganligidan alam tortadi".
- D) **3-bayt** – "Osmonga tosh uloqtirgan kishi osmonga emas, o'ziga ziyon qiladi va bu qilmishidan jabr chekadi".

26.

[2,4 ball]

Yuqorida keltirilgan baytlar haqidagi to'g'ri hukmni **aniqlang**.

- A) 3-baytda kishi holati mubolag'a asosida tasvirlangan.
- B) 2-baytda shu'la va xas so'zlari tazodni yuzaga keltirgan.
- C) 1-baytda tardi aks san'ati ifoda bo'yoqdorligini ta'minlagan.
- D) 2-baytda husni ta'lil san'ati aks etgan.

27.

[2,4 ball]

Qaysi fikr yuqorida keltirilgan baytlarda **AKS ETMAGAN?**

- A) Jabr ko'rmayin desang, jafo qilmagin.
- B) Zarar ko'rishni istamasang, eldan olisda bo'l.
- C) O'zgalarga zararing, o'zingga ozoringdir.
- D) Zarar qilmoqchi bo'lsang, ziyon ko'rasan.

**28-30.**

Jadvaldagi ma'lumotlardan foydalanib, 28-30-test topshiriqlariga (A-F) javob variantlarini moslashtiring.  
**Diqqat!** Javoblardan uchtasi ortiqcha.

<b>Topshiriqlar</b>	<b>Javoblar</b>
<b>28.</b> [1,7 ball] Imloviy xatolik kuzatilgan gapni <b>aniqlang</b> .	A) “El-yurt hurmati” ordeni harbiy mahorati, ilm-fan, adabiyot va san’atdagi xizmatlari uchun beriladi.
<b>29.</b> [1,7 ball] Qo’shimcha qo’llash bilan bog’liq uslubiy xatolik kuzatilgan gapni <b>aniqlang</b> .	B) Yurt ravnag‘idagi xizmatlari uchun beriladigan “O’zbekiston Qahramoni” unvoni 1994-yil 5-mayda ta’sis etilgan.
<b>30.</b> [1,7 ball] So’z qo’llash bilan bog’liq uslubiy xatolik kuzatilgan gapni <b>aniqlang</b> .	C) “Jasorat” medali uchun harbiy xizmatchilar, Milliy xavfsizlik xizmati va Ichki ishlar vazirligi xodimlari mukofotlanadilar.  D) “Sog’lom avlod uchun” ordeni jismonan va axloqan sog’lom avlodni tarbiyalashdagi xizmatlari uchun beriladi.  E) “O’zbekiston Qahramoni” unvoni bilan taqdirlangan shaxsga “Oltin Yulduz” medali topshiriladi.  F) “Shon-sharaf” ordeni Vatan himoyasi, mudofaa qudrati va milliy xavfsizlikni mustahkamlashda xizmatlari uchun beriladi.